

**TIL QUDRATI: QANDAY QILIB IKKINCHI TILNI
O'ZLASHTIRISH INSONNING FIKRLASH DOIRASINI
O'ZGARTIRISHI MUMKIN**

Urinova Sevara Botir qizi ¹

¹ Samarqand davlat chet tillari institute 1-kurs 2403-guruh talabasi

e-mail: sevaraaurinova.06@gmail.com

+998990265106

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.03.2025

Revised: 30.03.2025

Accepted: 31.03.2025

KALIT SO'ZLAR:

neurolingvistika,
neyronlar, intellectual,
gipoteza, grammatik
struktura, bilingvilizm,
monolingvist,
kontekstual fikrlash va
epatiya va boshqalar

Bugungi kunda til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan-da yoshlar orasida rivoj topib borayotganligi hammaga ayon. Shu sababli, mazkur maqolada bu mavzu doirasida keng qamrovda olib borilgan tajribalar va har xil tadqiqotlar batafsil mulohaza qilinadi. Bundan tashqari, buni o'qish davomida nima sababdan kundan kunga yangi tillarni o'rganishning insoniyat hayotida o'rni ortib borayotganligi va uning oqibatlari haqida ham ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Qolaversa, bu yerda ikkinchi tilni o'zlashtirish inson miyasi va fikrlashiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi mumkinligi va odamlarga foyda keltiruvchi psixologik va ijtimoiy tomonlari ham keltirib o'tiladi.

KIRISH. Barchaga ma'lum, hozirda biz hayotimizning har lahzasida yangi tilni o'rganish bag'oyatda katta kuchga ega ekanligiga amin bo'lib bormoqdamiz. Buning asosi sifatida esa ko'p tilda so'zlasha oladigan insonlar qolganlarga qaraganda jamiyat miqyosida ajralib turishini aytishimiz mumkin. Xo'sh aslida buning haqiqiy sabablari nimada, nima uchun qadimdan "Til bilgan – el biladi" nazdida ish olib bormoqdamiz. Ushbu maqola asosan mana shu kabi savollarga to'liq javob topish maqsadida yozilmoqda.

Haqiqatdan ham hozir XXI asr talabi sifatida boshqa tillarni o'rganish va boshqa millat va davlat vakillari bilan aloqa o'rnatish olish maqsadi ilgari surilib borayotgan jarayonlardan biri bo'lishga ulgurdi. Chunki hozir kim madaniyati va urf-odati boshqa-boshqa bo'lgan chet elliklar bilan muloqat qilsa, ularda fikrlash doirasi boshqa darajadagi insonlarning

visual ongi bilan bog'lanadi va dunyoga o'zgacha nazarda qarashni boshlaydi. Tabiiyki, bu kabi jarayonlar jamiyatdagi oddiy insonlar va intelligentlar orasida katta bo'shliqni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa bir so'z bilan tilning qanchalik qudratga ega ekanligini insoniyatga namoyish qiladi. Aslida, tilning o'zi haqiqiy mo'jiza hisoblanadi, chunki biz u orqali o'zimizning tafakkurimizdagi borliqni atrofdagilarga muammosiz yetkazib yoki tasvirlab bera olamiz. Endi tilni ikkinchi til sifatida o'rganish esa insonni, albatta, yuksaltirish sari yetaklashiga barcha amin bo'lsa kerak. Zero, yuqorida aytilganidek til insoniyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi ijtimoiy va psixologik hodisalar jamlanmasidir. Shu sababli, biz bu ne'matning asl kuch-qudratini ko'ra bilishimiz, qadrlashimiz va to'g'ri yo'lda undan samarali maqsadda foydalana bilishimiz lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, hozirgi zamon talabi til o'rganish va til o'rgatish, chunki til globalizatsiya kaliti va madaniyatlararo ko'prikdir. Shu tufayli ham ko'p tilda so'zlashuvchilarning jamiyatdagi roli har qachongidan ham ortib bormoqda. Aslida, til bilish faqat insonga va uning atrofdagilariga ta'sir qilishdan tashqari odamlarning ichki va ruhiy dunyosini ham tubdan o'zgartirib yuborish kuchiga ega. Bundan tashqari esa insoniyatning intellektual birliklarini ham ommaga ko'rsatishga yordam bera oladi. Xo'sh, buni u qanday qilarkin? Til fikrlash doiramizga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin? Quyida shu savollarga javob izlaymiz.

Birinchi navbatda, keling, ko'pchilikka yangidek tuyilishi mumkin bo'lgan, ammo necha yillar davomida bahslarga sabab bo'lib kelayotgan "Sapir-Whorf" gipotezasi haqida so'z olib borsak. Bu gipotezaning asosi til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash va isbotlashga yo'naltirilgan. Bu 1929-yilda amerikalik antropologik tilshunos olim Edward Sapir va uning shogirdi Benjamin Whorf tomonidan fanga kiritilgan. Ushbu gipotezada biz ikki asosiy fikrlarga duch kelishimiz mumkin. Bular tilning deterministik va nisbiy ta'sirlari hisoblanadi.

- **Tilning deterministik ta'siri** – bu nazariyada til so'zlovchilarning fikrlash qobiliyatini belgilab berishi haqida gap boradi. Unga ko'ra, insonlar olamni faqatgina o'z so'zlashuv tillarining grammatik strukturalaridan kelib chiqqan holatda tushunishga va amalda qo'llashga harakat qilishi nazarda tutilgan. Buni esa vaqt tushunchasining turli xil tillarning grammatikasida har xil yo'sinda ifodalanishi bilan asoslashimiz mumkin. Bunga misol sifatida, mandarin tilida (xitoy tili) vaqt tushunchasi uzluksiz davomiy holat sifatida tasniflanishini aytyshimiz mumkin. To'g'ri, bu tilning grammatikasida leksik birlik sifatida "kecha", "hozir", yoki "ertaga" so'zlari ishlatiladi, ammo jumladagi grammatik struktura o'z shaklini ingliz tilidagi qoidalar kabi hozirgi zamonda "be" o'tgan zamonda "was/were"

ga yoki kelasi zamonda “will be” shakliga o’zgarishi lozim degan tushunchaga rioya qilmaydi. Chunki yuqorida aytilganidek, bu tilda grammatik zamon shakllari mavjud emas. Bu qarash o’sha jamiyatda yashovchi odamlarning tabiatga, madaniyatga va mavjudlikka bo’lgan munosabatini aks ettirib turadi.

- **Tilning nisbiy ta’siri** – bu nazariyaning asosi esa boshqacharoq. Ya’ni odam biror nimani qanday ifodalasa, uni qanday tushungan bo’lsa, shunday bayon qiladi. Boshqacharoq aytadigan bo’lsak, turli tillar odamlarning dunyoqarashiga ham turlicha ta’sir qiladi va o’z isbotini topadi. Misol uchun, ayrim tillarda ranglarni ifodalovchi so’zlarning soni chegaralangan, bu esa ranglarni aniqlash va ajratishga doir bo’lgan ba’zi bir qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi. Buni esa rus tilida “ko’k” rang uchun “голубой” va “синий” so’zlarni ishlatilishi va ingliz tilida bu ikkala so’z uchun ham birgina “blue” so’zining qo’llanilishini bilan asoslash mumkin. Bu kabi so’zlardagi cheklovlar ham idrokka bevosita ta’sir ko’rsatib, so’zlashuvchilarga ranglarni bir-biridan ajratishdagi chalkashliklarni va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xo’p, yuqorida ta’kidlangan nazariyalar va gipotezalarning barchasi tilning qanchalik kuchga ega ekanligini va uning taffakurimiz va fikrlash doiramizni qanchalik darajada o’zgartira olishiga qisman bo’lsada javob topdik degan umidda, bu mavzuning boshqa bir jihatlariga ham nazar tashlasak.

Aslida, bizning taffakurimizdagi mantiqlarning barchasi miyamizdagi nerv sistemasidagi neyronlarning o’zaro birikuvidan va aloqasidan shakllanib tashqi muhitga nutq bo’lib chiqadi. Shu sababli ham yaqin yillar ichida fanga neurolingvistika degan tushuncha kirib keldi va bu sohaning vazifasi sifatida til va miya o’rtasida sodir bo’luvchi jarayonlarni o’rganish deb belgilandi. Bundan tashqari uning vazifasi sifatida “Bilingvilizm” jarayonidagi miya va neyronlar holatini ham aniqlashni aytishimiz mumkin. Keling buni yaqindan ko’rib chiqamiz.

Buni isbotlashda esa mashhur tilshunis olim va uzoq yillardan beri kognitiv bilimlarni o’rganish va boshqalarga tushuntirish bilan shug’ullanib kelayotgan, hozirda “University of Arizona” da institut professori sifatida ish faoliyatini olib borayotgan Avram Noam Chomskyning izlanishlaridan unumli foydalanamiz. Olim fanga “Generative Grammar” tushunchasini olib kirdi va buni ommaga tilshunoslik, neurolingvistika va kognitiv fanlarning asosi va mazmuni shu ekanligini aytdi. Uning fikricha, “Generative Grammar” bizga tilning asl yashirin sirlarini ochib, haqiqiy qudratini namayish qilishga yordam beradi. Uning mohiyati esa tilning ichki tuzilishidan tortib, uning miyada qanday saqlanishiga qadar jarayonlardan iborat. Bunga misol saifatida u chaqaloqlarning qanday til o’rganishi haqidagi

nazariyasi bilan asoslaydi. Unga ko'ra, chaqaloqlar tilni faqat atrof muhitni ko'zatish, eshitish va eshitganlarini yodlab qolish orqali emas, balki mantiqiy va grammatik shakllardan foydalangan holda o'rganishar ekan. Buning isboti esa kattalar tomonidan aytiladigan gaplarning barchasi ham bir xil strukturaviy grammatika va so'zlar ketma-ketligida bo'lmasligi, ammo shunday holatda ham bolalarning bu kabi gaplarning tushunishi va ular ham bunday tartibda hech qanday grammatikani bilmagan holda so'zlashishlari mumkin. Bu holat esa chaqaloqlarda tilni tabiiy o'zlashtirish uchun grammatik qoidalarni o'qitish yoki yod oldirish shart emasligini bildiradi. Biroq keyinroq bularning barchasi o'rgatilishi lozim, zero biz nega bu tartibda gapirishimizning sababi oydinlashtirilishi kerak va bu insoniyatga yanada o'zini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Qisqacha qilib aytganda, bularning barchasi nazariy haqiqatlar va isbotlangan tajribalardir.

Shu bilan birga, neurolingvistika, psixolingvistika va nevrologiya sohasida ancha yillardan beri faoliyat yuritib kelayotgan Ellen Bialystok ham yetakchi olimlardan biri bo'lib, bu sohada qiziqarli tarjibalar va "Bilingvilizm" tushunchasining sharhlovchilaridan biridir. Uning fikricha, "Bilingvilizm" bir kuch va u kabi sifatlarga ega insonlar boshqalarga qaraganda anchagina yetuk vazilatlarni egallay olishadi. To'g'ri, tajribalar davomida ba'zi bir "Bilingvilizm"ning kamchiliklari topilgan. Bularga misol qilib ularning "Monolingvist"larga qaraganda nutq jarayonida tutulishlari ko'pligi va nutq davomida so'z boyligidan yetarli darajada foydalana olishmasligi, hamda kishida bitta til boshqa til ustidan dominantdek tuyulib, boshqa til doirasidagi lug'at boyligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Ammo bunga qaramay, uning afzallik tomonlari serob. Misol uchun, qo'shimcha tillarni o'rganish va uni kundalik hayotda keng qo'llash insonlarga moslashuvchanlik, qiyinchiliklarni darhol hal qilish, diqqatni jamlash va yangi narsalarni tez o'rganish imkonini beradi. Va bularning barchasi neurolingvistikaga oid bo'lib, kognitiv mashqlar va neyronlarning ko'payishi, hamda kuchayishini vujudga keltiradi. Qolaversa, ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashuvchilar har xil miya faoliyati bilan bo'g'liq kasalliklarga bir tilda so'zlashuvchi insonlarga qaraganda kamroq chalinish ehtimoliga ega. Shu o'rinda, Ellen Bialystok ham bu jarayonni hayotiy faoliyat sifatida qo'llash "Altsgeymer" (Dementia; aqliy qolbilyatlarning pasayishi) kasalligini oldini olishi yoki bo'lmasam, bu kasallikning alomtlari va davrini 5-6 yilga ortga so'rish, shu bilan birga keksalikdagi xotira zaiflashuvini anchagina kamaytirishi mumkin ekanligini tajribalari davomida isbotlagan va nazariyalar bilan asoslab o'tgan.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, til o'rganish insoniyat uchun koni foyda. Quyida ularning fikrlash doirasi yoki miyaga o'tkazadigan foydali ko'nikmalari haqida so'z olib

boramiz. Aslida ularni analitik fikrlash, ijodiy fikrlash va oddiygina muammolarni hal qilish deb olsak bo'ladi.

- **Analitik fikrlashni rivojlantirish;** Bu o'z nomi bilan ham tillarni tahlil qilish yoki bir-biri bilan solishtirib o'rganish imkonini yaratuvchi va ko'p til o'zlashtirishning foydali tomonlaridan biridir. Bu qobiliyatning keng qo'llanilishi tillar orasida mantiqiy bog'liqlikni vujudga keltiradi. Bu esa chet tillarini o'rganish faqatgina yangi so'zlarni va u tilning grammatikasini o'rganish yoki yod olishdan emas, balki ona tilimiz bilan chet tilini mantiqiy jihatdan tahlil qilish va yanada yaxshiroq tushunish imkonini yaratib beradi. Qolaversa, agar rus tili va ingliz tilini o'rganish kerak bo'lsa, bunday holatda odamlar ikki til ichidagi farqlarni aniqlaydi va bu ham o'z navbatida rivojlanishning bir ko'rinishidir. Bundan tashqari boshqa tillardan foydalish miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni miyada hal qilinishi kerak bo'lgan yuklamalarning hajmi yangi til o'rganish qancha oshsa, shu bilan birgalikda shuncha oshib boraveradi. Bu esa nutqdagi moslashuvchanlik xususiyatini ko'paytirib, tushunish qobiliyatini yanada oshiradi. Nutq vaqtidagi chalkashliklar yoki bo'lmasam, ikki va undan ortiq tillardan bir vaqtda foydalanish va ularni mukammal darajada ketma-ketlikda gapirish ham bu analitik fikrlashni va miyadagi harakatni tezlashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

- **Ijodiy fikrlashni rivojlantirish;** Bunda esa biz ijodiy yondashuvga ega bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, yangi tilni o'rganish- bu yangi madaniyat va yangi urf-odatlaridan xabardor bo'lish bilan bir xil darajadagi ishdir. Bu holat esa bizda madaniyatlararo dunyoqarashni kengaytiradi va har jabhadagi mavzu uchun ma'lumot to'plash imkonini yaratadi. Bu narsa esa o'z navbatida odamlarni raqobatbardosh sifatida tarbiyalay oladi. Shu bilan birga, tafakkurimizdagi jarayonni tezlashtirib, bir vaqtning o'zida bir nechta til doirasida o'ylash va fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Balki shu sababli ham hozirda "Bilingvist"larga ish bozorida talab katta. Yoki bo'lmasam, buning sababi ko'p tilli odamlarning bir tilda so'zlashuvchilarga qaraganda kreativ va ishga yangicha yondashish usullarini topa olishining ehtimoli katta ekanligidir.

- **Muammolarni hal qilish samaradorligi;** Yuqorida aytib o'tilganidek, chet tilini biluvchi shaxslar boshqalarga qaraganda epchilroq bo'ladi va muammoli vaziyatni har jabhadan ko'ra oladi. Bu esa insonlarni qiyin vaziyatdan o'zlarini olib chiqib ketishga yordam beradi. Xotira va diqqatni ham, albatta, kuchaytiradi va yangi axborotlar "Bilingvist"larga tezroq qabul qilinadi va tushunarliroq ham bo'ladi. Qisqasi muammoli va murakkab masalalarga o'rinli javobni topish ko'p tilda so'zlashuvchilar uchun odatiy hol va

bu ularga qiyinchilik tug'dirmaydi. Shu sababli til o'rganish ham kasbiy, ham shaxsiy erkinlikni ta'minlash uchun yaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chet tillarini bilishning bundan boshqa foydalarni ham olib kelishi mumkin. Agar inson chin dildan xohlasa, yuqorida aytilgan xususiyatlarni birlashtirgan holda, bir-butun qilib jamiyatimizni yanada yaxshilashimiz va boshqa madaniyatlarni o'zimiz va boshqalarning foydasi sifatida o'rganishimiz va, albatta, o'rgatishimiz mumkin. Bularning barchasini bir vaqt qo'llash esa, insoniyatda asosan kontekstual fikrlash va empatiyaning rivojlanishini ifoda etadi. Xo'sh, o'zi bu tushunchalar nimani anglatadi? Quyida shu haqida;

❖ **Kontekstual fikrlash** – bu fikrlash turini yuqoridagilarning takrori sifatida ham kirgizish mumkin, ammo uni biz kenroq tushunishimiz darkor yoki yuqoridagi 3 turning birikuvi va unga qo'shimcha ravishda kengroq kontekstlarning ya'ni tilni tarix, madaniyat va jamiyat bilan hamohanglikda o'rganish nazarda tutilishi kerak. Bundan tashqari bu jihat orqali ayrim so'zlarda faqatgina bitta tilga bo'lgan qaramlik borligini ham ko'rishimiz va qolganlarga isbotlashimiz mumkin. Bunga misol sifatida esa, o'zbek tilida amalga oshish ehtimoli nolga teng bo'lgan ish harakatlarga nisbatan “ tuyaning dumi yerga tekkanda” iborasining ishlatilishi bilan, xuddi shu ma'nodagi jarayonlarga nisbatan ingliz tilida “when the pigs fly” iborasining qo'llanilishini aytishimiz mumkin. Bu ikki tilning o'rtasidagi farq hammaga yaqqol ko'rinib turibdi. Ma'no bir xil faqatgina ma'lum bir til doirsida, ammo tarjima qilinganda yoki xuddi shu strukturani boshqa til uchun qo'llashga harakat qilinganda esa asosiy tafovutga duch kelish mumkin, ya'ni bu birikmalar o'zi birikkan tildan boshqa tilga tarjima qilingan o'z ma'no kuchini yuqotadi.

❖ **Epatiya** – bu esa insonlarning ichki his-tuyg'ularini tushunish va ularga hamdardlik qilishni anglatuvchi jarayon sifatida fanga kiritilgan. Va uning vazifasi yangi til o'rganuvchi insonlarga ana shu tilning ichi kechinmalari va tabiatini ham o'rgatish va o'zida namoyish qila olishiga ko'maklashishdir. Buni esa har bir til o'zining nozik bir kechinmalariga ega ekanligi bilan isbotlashimiz mumkin. Masalan, amerikaliklar o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishga o'rganishgan va bu ular uchun odatiy hol, ammo yaponiyaliklarning urf-odatlariga keladigan bo'lsak, ularning mulaqoti ham o'zlarining madaniyati kabi kamtarona va ifodalanishi qiyin bo'lgan emotsiyalarga juda boy. Shu sababli ham bu ikki turdagi insonlarga ularning madaniyatida monand hamdard yoki mativatsiya berish u insonlarning haqiqiy muammolariga yechim topishi yoki haqiqatdan ham ularni tushinib yetish va yetarlicha va to'g'ri uslubdan foydalangan holda dalda bo'la olish qobiliyatini bizga o'rgatishi mumkin ekan. Shunday ekan biz ayta olamizki, til shunchaki o'rganilmaydi, balki u his ham qilinishi lozim. Bu nazariya bo'yicha bir nechta tajribalar amalga ham oshirilgan.

Ulardan eng ishonchlisi esa, Ellen Bialystokning ikki tilda va bir tilda so'zlashuvchi bolalar ustida amalga oshirgan tajribasi hisoblanadi. Unga ko'ra, "Bilingvist" va "Monolingvist" bolalarga turli xil odamlar bilan suhbatlashish va ularning ichki kechinmalariga nisbatan qanday xulosaga kelganligi so'raladi. Natijada esa, ko'p tilda so'zlashuv qobiliyatiga ega bolalar insonni boshqalarga qaraganda yaxshiroq tushuna olishi o'z isbotini topadi. Bu esa o'z navbatida chet tilini biluvchilar vaziyatni yaxshiroq anglash qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan tashqari, biz chet tillarini o'rganib o'zimiz uchun ideal bo'lgan karyera yuliga ega bo'lishimiz mumkin, negaki ta'kidlab o'tilgan barcha sifatlar "Bilingvist"larga xos va ularni har qanday ishga hech qanday muammolarsiz olish mumkin. Va, albatta, bu boshliq va deriktorlarning foydasi uchun ishlaydi. Zero, yuqoridagi mukammal unumdorlik fazilatlariga ega har qanday odam beznes uchun olmos kabi kerakli. Bundan tashqari, bu kabi intelligent xususiyatlarning sohiblari ham bor imkoniyatlarda foydalanib qolishlari darkor. Chunki ular uchun dunyo kezish va hayotda o'z o'rnini va maqsadini toppish qolganlarga qaraganda osonroq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til o'rganish har doim insoniyat uchun koni foyda, faqat undan to'g'ri yulda, samarali foydalanib qolish o'zimizga bog'liq. Maqola davomida, nima sababdan necha asrlardan beri "Til bilgan – el biladi" deb bekorga aytishmasligining sabablarini ko'rib chiqdik va mulohaza qildik. Bundan tashqari, til nima uchun kerakligi va uning shakllanish tarixi va hayotimizda o'rni to'g'risida so'z olib bordik va hamma qiziqqan savollariga javob oldi degan umiddamiz. Shu bilan birga, aytish joizki, til bekorga insoniyatga berilmagan va asrlardan beri rivojlantirilmayapti. Biz buni anglashimiz va uning negizini tushunib yetgan holda birinchi navbat hech bo'lmasa o'z ona tilimizni mukammal o'rganib va boshqalarga o'rgatishimiz lozim. Va keyingina chet tillarini ham o'zlashtirib, o'zligimizni anglash va kamolga yetish uchun mos keluvchi shart-sharoitlarni taxt qilishimiz kerak. Bu narsalarning barchasi bizga berilgan imkoniyatlardir, biz ularda vaqtida foydalanib qolishimiz kerak ekan, vaqtni o'tkazmay kelajak ortidan quvish lozim. Shuni yodda tutish kerakki, ko'p tillarda so'zlashish va ularni o'rganish insoniyatga nafaqat yangi eshiklarni, balki yanada chuqurroq fikrlovchi inson bo'lishni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bialystok, E. (2001). Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. Cambridge University Press.

2. Bialystok, E., Craik, F. I. M., & Freedman, M. (2007). Bilingualism as a Protection Against the Onset of Symptoms of Dementia. *Neuropsychologia*, 45(2), 459–464.
3. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press.
4. Chomsky, N. (1986). *Knowledge of Language: Its Nature, Origin, and Use*. Praeger Publishers.
5. Cook, V. (2008). *Second Language Learning and Language Teaching*. Hodder Education.
6. Crystal, D. (2010). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge University Press.
7. De Groot, A. M. B. (2011). *Language and Cognition in Bilinguals and Multilinguals: An Introduction*. Psychology Press.
8. Gass, S. M., & Selinker, L. (2008). *Second Language Acquisition: An Introductory Course*. Routledge.
9. Grosjean, F. (2010). *Bilingual: Life and Reality*. Harvard University Press.
10. Kroll, J. F., & Bialystok, E. (2013). Understanding the Consequences of Bilingualism for Language Processing and Cognition. *Journal of Cognitive Psychology*, 25(5), 497–514
11. Pavlenko, A. (2014). *The Bilingual Mind: And What It Tells Us about Language and Thought*. Cambridge University Press.
12. Sadullayeva, G.I. Advantages and disadvantages of learning a foreign language at an early age. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*. 2023-yil 20-iyun, 20-son, 77-79-betlar.
13. Sadullayeva, G.I. Developing listening comprehension and educational approaches in language learning. 2024-yil, 2-son, 17-20-betlar.
14. Sadullayeva, G.I. Interactive methods of teaching language. 2023-yil 3-mart, 75-77-betlar.
15. Sadullayeva, G.I. Listening comprehension: effective exercises for listening skill development. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*. 2024-yil, 5-son, 113-119-betlar.
16. Sadullayeva, G.I., and Sevara Urinova Botir qizi. *Til o'rganishda immersiv metodlar: Tezroq va samaraliroq o'rganish uchun tilga sho'ng'ishning afzalliklari*.
17. Sapir, E. (1929). The Status of Linguistics as a Science. *Language*, 5(4), 207–214.
18. Tomasello, M. (2003). *Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition*. Harvard University Press.
19. Urinova, S. B. (2025). *Tinglab tushunishni oshiruvchi metodlar. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 5(1), 219. www.sciencebox.uz
20. Whorf, B. L. (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. MIT Press.